



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 27-mart

VII-8-37-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **Tuman mahalliy budjetining 2025-yilgi xarajatlar smetalaridan maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirish to‘g‘risida**

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarori, Budjet Kodeksining 126-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq, sakkizinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning 2025-yil 7-martdagi 02/02-38-128-sonli xati va 6-martdagi 02/02-38-119-sonli hamda 24-martdagi 02/02-38-167-sonli moliyaviy xulosalari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2025-yilgi maqbullashtirilgan mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga 251,2 mln.so‘m, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga 116,0 mln.so‘m va tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli 52- va 57-DMTTlarini ta‘mirlash va jixozlash xarajatlari uchun 242,5 mln.so‘m hamda 5- va 17-sonli umumta‘lim maktablariga quyosh panel o‘rnatish uchun 109,7 mln.so‘m **jami 719,4 mln.so‘m** (Yetti yuz o‘n to‘qqiz million to‘rt yuz yigirma to‘rt ming so‘m) mablag‘ 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining bosh hisobchisi O.Niyazov, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi o‘rinbosari (M.Obbozov) va maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i Sh.Sultonov ushbu ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va o‘z vaqtida foydalanish bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budjet mablag‘larining to‘g‘ri va maqsadli ishlatilishi bo‘yicha shaxsiy javobgarlik mas‘uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'imatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining  
2025-yil 27-martdagi  
VII-8-37-7-96-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Tuman mahalliy budjetining 2025-yilgi maqbullashtirilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirish to'g'risida  
MA'LUMOT**

T/r	Tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Mablag' miqdori (ming. so'm)	Asos
<b>Jami:</b>			<b>0</b>	
1	Tuman hokimligiga	"E-qaror" elektron platformasiga	31 500	Tuman hokimining birinchi o'rinbosarining 2025-yil 6 martdagi 02-02/191-sonli xati va tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 6 martdagi 02/02-38-119-sonli xati
		"E-Kengash" elektron platformasiga	6 000	
		"Edo.ijro.uz" elektron platformasiga	18 000	
		"hrm.argos.uz" elektron platformasiga	6 000	
		Milliy Gvardiya (yopiq xona) qo'riqlash xizmatiga	6 200	
		Xujjatlarni Arxivga topshirish xarajatlariga	113 500	
		Xizmat avtomashinalariga siqilgan gaz sotib olish xarajatlariga	70 000	
2	Iqtisodiyot va moliya bo'limiga	Elektr energiya to'lovi xarajatlariga	65 000	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 7 martdagi 02/02-38-128-sonli xati
		10 kv quyosh panel o'rnatish xarajatlariga	40 000	
		Chiqindilarni olib chiqish xarajatlariga	1 000	
		Telefon va pochta xizmatlariga	2 000	
		Qog'oz va qog'ozdan tashqari tovar moddiy zaxiralar sotib olish uchun	8 000	
3	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga	52-57-DMTTlarni ta'mirlash va jixozlash xarajatlariga	242 500	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining 2025-yil 7 martdagi 289-sonli xati va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 7 martdagi 02/02-38-131-sonli xati
		5- va 17-umumta'lim maktablariga quyosh panel o'rnatish	109 724	

<b>T/r</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi</b>	<b>Mablag' miqdori (ming. so'm)</b>	<b>Asos</b>
4	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga	Xarajatlar smetasidan maqbullashtirilgan mablag'	-258 511	7091999072 (202282,0 ming.so'm) 7092999072 (45529,0 ming.so'm) 7096999072 (10700,0 ming.so'm)
5	Obodonlashtirish boshqarmasi	Xarajatlar smetasidan maqbullashtirilgan mablag'	-332 825	7064999084 (1370,0 ming.so'm) 7065999084 (331455,0 ming.so'm)
6	Madaniyat bo'limi	Xarajatlar smetasidan maqbullashtirilgan mablag'	-830	7082999056 (380,0 ming.so'm) 7082999134 (450,0 ming.so'm)
7	Sport maktab	Xarajatlar smetasidan maqbullashtirilgan mablag'	-108 732	7083999205 (108732,0 ming.so'm)
8	Bolalar musiqa va san'at maktabi	Xarajatlar smetasidan maqbullashtirilgan mablag'	-18 526	7096999056 (18526,0 ming.so'm)